

QORAQALPOG'ISTONDAGI MASHHUR QO'SHIQCHILAR IJODI

Qaypanov Azizbek Utesh o'g'li

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Nukus filiali "Musiqqa san'ati" fakulteti "cholg'u ijrochiligi" kafedrası

xalq cholg'ulari mutaxassisligi talabasi.

G. Kamalova

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21722456>

Annotatsiya. *Qo'shiqchilik xalqning ijtimoiy hayotining hamma tomonlari bilan bog'langan, muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan, insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o'ziga xos obrazlarda badiiy jihatdan aks ettirgan noyob san'at turidir. Mazkur maqolada ushbu san'at turining Qoraqalpog'iston Respublikasida rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, elimizga taniqli xonandalarning hayoti va ijod yo'li haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *qo'shiq, tembr, kuylash, iste'dod, xonanda, ijrochilik.*

Аннотация. *Пение - это уникальный вид искусства, связанный со всеми аспектами общественной жизни народа, прошедший определенные этапы исторического развития и художественно отражающий жизнь в уникальных образах в соответствии с уровнем человеческого мышления. В данной статье представлена информация о жизни и творческом пути известных певцов, внесших большой вклад в развитие этого вида искусства в Республике Каракалпакстан.*

Ключевые слова: *песня, тембр, пение, талант, певец, исполнитель.*

Annotation. *Singing is a unique art form connected with all aspects of the people's social life, having passed certain stages of historical development, artistically reflecting life in unique images depending on the level of human thought. This article provides information about the life and creative path of famous singers who made a great contribution to the development of this art form in the Republic of Karakalpakstan.*

Keywords: *song, timbre, singing, talent, singer, performance.*

Xalqimizning ko'p yillardan buyon turmush tajribalari bilan yonma-yon kelayotgan, ma'naviy madaniyatimizning oltin meroslaridan biri bu qo'shiq ijrochiligidir. Xalqimizning boy xazinasini bo'lgan qo'shiqlar, elimiz orasida keng tarqalishi, shuningdek, bizgacha meros bo'lib saqlanib kelishi tarixi va ularning bugungi kungacha yetib kelishida ijrochilarning o'rni beqiyosdir. Xalq qo'shig'i bu - uzluksiz yangilanib boradigan harakatchan material. Ma'naviy madaniyatimiz xazinasini sanalgan bu qo'shiqlar kelajak avlodga yangicha tafakkur yuritish uchun turtki bo'ladi. Bu xalq qo'shiqlarimizning bizgacha yetib kelishida, xalqimizning mohir ijrochilarining o'rni beqiyosdir [1; 311].

Qoraqalpog'istonda vokal janrining rivojlanishiga kompozitor, xonanda va pedagoglar katta hissa qo'shib kelmoqda. Bastakorlar o'zlarining o'chmas qo'shiqlari bilan xalq qalbidan joy olib vokal janrini va u bilan bevosita bog'liq opera, xor janrlarini ham boyitib kelmoqda.

Yana bu janrning rivojlanishiga qo'shiqchilar va ularni tarbiyalab kelayotgan pedagog-qo'shiqchilar ham o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Mazkur maqolamizda Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyat va san'atining rivojlanishiga o'zlarining katta hissasini qo'shib kelayotgan, elimizga taniqli bo'lgan bazi qo'shiqchilar ijodiga to'xtalib o'tishni joiz dep topdik.

Otajon Xudoyshekurov. O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Boshqirdiston xalq artisti, Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati o'zining betakror xush ovozi, noyob tembr ohanglariga ega "Ayqulash" ansamblida ko'p yillar davomida o'zbek va qoraqalpoq qo'shiqlarini ijro etib kelgan baland ovoz sohibi Otajon Xudayshukurov 1944-yil 4-oktabrda To'rtko'l tumanida tug'ilgan.

O'z ijodi davomida ko'plab qo'shiqlar ijro etgan. Uning repertuaridan milliy mumtoz qo'shiqlar ("Feruz 1", "Xorazm Segohi", "Bozurgoniy", "Qo'shchinor", "Guluzorim", "Kurd Eshvoyi", "Samarqand ushshog'i", "Toshkent irog'i" v.b), Xorazm dostonlari ("Najab o'g'lon" dostonidan "Kimni sevar yorisan", "Bahrom va Gulandom"dan "Ayriliq", "Avazxon"dan "Qalandarim"), kompozitorlar asarlari ("Ko'zlaring sening", "O'zbekistonim", "Rano bo'layin deb", "Sog'inib keldim", v.b), shuningdek, turkman, ozarbayjon, qoraqalpoq, qozoq va qirg'iz xalq qo'shiqlari o'rin olgan. O.Xudoyshekurov sozanda va o'zi kuylaydigan ("Mujgonlaring", "Olamda bir", "Birinch muhabbatim" kabi 300 dan ortiq) qo'shiqlarning ijodkori sifatida ham tanilgan. O.Xudoyshekurov chiroyli tembrli, keng diapazonga ega, baland ovoz sohibi sifatida barcha tinglovchilar qalbidan chuqur joy olgan [1; 313].

O.Xudayshukurovning ana shunday mehnatlari yuksak baholanib, unga 1969-yilda Qoraqalpog'iston xalq artisti, 1977-yilda O'zbekiston xalq artisti, 1981-yilda Tatariston xalq artisti, 1983-yilda Turkmaniston xalq artisti, shuningdek, 1974-yilda Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati kabi faxriy unvonlar bilan taqdirlanadi.

O'z ijrochilik mahorati bilan qalblarda o'chmas iz qoldirgan tug'ma iste'dod egasi O.Xudoyshekurov 1994-yil 23-dekabrda vafot etdi. Ulug' san'atkor vafotidan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Ellikqal'a tumani hokimligi tashabbusi bilan milliy qadriyatlarimizni tiklash, xalqlar o'rtasida madaniy do'stlik aloqalarini mustahkamlash, qo'shiqchilik san'atini yanada rivojlantirish maqsadida xalqaro Otajon Xudoyshekurov fondi tashkil etildi [2; 21].

Bazarbay Nadirov. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, Berdaq nomidagi davlat mukofoti laureati, O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi, Qoraqalpoq milliy akademik qo'shiqchilik san'atining asoschisi, atoqli xonanda, ardoqli ustoz B.Nadirov 1937-yil 7-aprel kuni Nukus tumanining "Oq terak" qishlog'ida tug'ildi. Yoshligidan ota-onasidan yetim qolib, Chimboy tumanidagi bolalar uyida va Taxtakopirdagi internatda o'qib, ta'lim olib tarbiyalanadi. Uning yoshligidan musiqaga, qo'shiq aytishga qiziqishi ortib, qishloqqa to'yga kelgan Qiyas jirov, Esjan, Japaq va Sherniyaz baxshilarni havas bilan tinglab, ijro etgan qo'shiqlarini tez yodlab olib, ularning aytganidek qilib ijro etaveradi. Uning bunday qobiliyati borligini sezgan bolalar uyidagi qo'shiq muallimi B.Nadirovga mandalina va skripka chalishni o'rgatib, qo'shiqlar aytirib havaskorlar jamoasi a'zolari qatorida turli musobaqalarga, konsertlarga va bayramlarga o'z repertuarlari bilan qatnashtirib kelgan.

1987-yili Berdaq nomidagi davlat musiqali teatrida qo'yilgan birinchi qoraqalpoq operasi "Ajiniyoz"da bosh rollardan biri Berdi inglizning partiyasini ijro etib, S.Yudakovning "Maysaraning hiylasi" operasida Mollado'st va S.Raxmanovning "Aleko" operasida Alekoning ariyalarini o'rganib ijro etib chiqdi. Tantanali konsertlarda qoraqalpoq kompozitorlarining asarlari bilan bir qatorda Yevropa xalqlarining klassik kompozitorlari Motsart, Bize, Verdi, Gaydn, Chaykovskiy, Borodinlarning va o'zbek, qozoq operalaridan ariyalarni ijro etib keldi. S.Nurimbetovning "Qaraqalpaqta", K.Abdullaevning "Jigirma beste", "Elim bar", "Tuwgan jerge" kabi ko'pgina qo'shiqlarning birinchi ijrochisidir.

B.Nadirovning ko'p yillik qo'shiqchilik, ustozlik mehnatlari hukumatimiz tomonidan yuksak baholanib, unga 1971-yilda Qoraqalpog'istonga xizmat ko'rsatgan artist, 1974-yilda O'zbekistonga xizmat ko'rsatgan artist, 1977-yilda Qoraqalpog'iston xalq artisti, 1981-yilda O'zbekiston xalq artisti faxriy unvonlari berildi. Shuningdek, 1987-yilda Berdaq nomidagi davlat mukofoti laureati, 1984-yilda O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi, 1986-yilda Mehnat faxriysi medallarini olishga musharraf bo'ldi. B.Nodirov mehnat faoliyati davrida o'z qo'shiqchilik maktabini yaratgan, xalqimizning iste'dodli yoshlarini akademik qo'shiqchilik yo'lida o'qitgan birinchi ustozlardan hisoblanadi.

Bayram Matchanov. O'zbekiston, Qoraqalpog'iston xalq artisti, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari davlat mukofotlari laureati va ko'plab faxriy ordenlar sohibi Bayram Matchanov 1943-yil 29-aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't shahrida xizmatchi oilasida tug'ildi. 1957-yili butun jahon yoshlar festivali oldidan Nukusda o'tkazilgan havaskorlar musobaqasida respublika yoshlari qo'shiqchilari o'rtasidagi musobaqada g'olib bo'lib, birinchi o'rinni egallab, oltin soat bilan taqdirlanadi va unga festival laureati faxriy unvoni beriladi.

U ijro etgan qo'shiqlar "Bayterek", "Menin jigit waqtim, senin qiz waqtin", "Men diyqannin uliman", "Dayi qiz" va boshqa qoraqalpoq qo'shiqlaridan tashqari o'zbek musiqa qo'shiqlaridan qardosh xalqlar rus, tatar, boshqird, turkman, qozoq tillaridagi qo'shiqlarni ham aytib keng jamoatchilik olqishlariga sazovor bo'ldi.

B.Matchanov qoraqalpoq milliy qo'shiqchilik san'atini respublikamizdan tashqari qo'shni respublikalar xalqlari jamoatchiligiga keng tanishtirish maqsadida ko'plab mamlakatlarda gastrol safarlarida bo'ladi. Xalqning madaniy dam olishini ko'ngilli o'tkazish yo'lida o'z ustida tinmay mehnat qilib repertuarini boyitib kelyapti. Shuning natijasida 1967-yil noyabrda "Qoraqalpog'istonga xizmat ko'rsatgan artist", 1969-yil martda "O'zbekistonga xizmat ko'rsatgan artist", 1974-yil mayda "Qoraqalpog'iston xalq artisti" va o'sha yili oktabr oyida "Hamza" nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlanadi. 1977-yilning iyun oyida "Boshqirdiston xalq artisti", 1982-yilning avgustida "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvonlari berildi. 1986-yilning dekabrda Moskvaga Butunittifoq teatrlar jamiyatining ta'sis syezdida delegat bo'lib qatnashib qaytadi.

Musiqa, san'at, qo'shiqchilik yo'nalishida uzoq yillar ko'rsatgan xizmatlari uchun hukumatimiz tomonidan yuksak baholanib 2000-yil "Do'stlik" ordeni, 2006-yil "El-yurt hurmati" ordeni berildi va shu yili O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining "Ehtirom nishoni" medali bilan taqdirlandi [2; 25-26].

Davitbay Qayipov. 1947-yili Chimboy tumanida tug'ilgan. D.Qayipov 1965-yili o'rta maktabni tugatgach, Nukus musiqa-xoreografiya bilim yurtining vokal bo'limiga o'qishga kirib, uni 1969-yili muvaffaqiyatli tamomlagan. Shu bilan birga, u shu yillar oralig'ida Qoraqalpog'iston davlat teleradio qo'mitasining xalq cholg'u ansamblida solist bo'lib ishlaydi.

Toshkent konservatoriyasining yakkaxon solistlik fakultetiga o'qishga qabul qilinadi. 1971-1973-yillarda harbiy xizmatda bo'ladi. U o'zining ijodiy faoliyati davomida Ukraina, Turkmaniston, Tojikiston va boshqa mamlakatlarda qoraqalpoq madaniyati va san'ati kunlarida ishtirok etdi [2; 36].

U ijro etgan ona-Vatan, muhabbat va inson qadr-qimmatini kabi ezgu tuyg'ular bilan yo'g'rilgan "Barmeken", "Intizar sa'gan", "Altin kol", "Qonirat", "Kozleri", "Saginish", "Laylim", "Aydinlar", "Sawdigim", "Jananim" "Qadiri bilmes", "Pashshay koylek", "Bir

páry” va boshqa bir qator qo‘shiqlar biz bilan birga yashab, yosh iste’dodlar tomonidan qayta ijro etilib, xalqimizning ma’naviy dunyosini go‘zalliklarga burkab kelmoqda.

Gulparshin Sirimbetova. O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston va Boshqirdiston xalq artisti, Hamza nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti laureati Gulparshin Sirimbetova 1945-yil 1-mart kuni Mo‘ynoq tumani Qozoqdaryo qishlog‘ining “Kommunizm” kolxozida baliqchi oilasida tug‘ilgan. U qishloqda har kungi radio eshittirishlar orqali beriladigan o‘sha davrdagi mashhur qo‘shiqchilardan A.Shamuratova, A.Atamuratova, S.Mambetova va G.Shiraziyevalarning ijrosidagi qo‘shiqlarni tinglab, uni yodida saqlab og‘zaki o‘rgangan.

Ansamblidagi ijod vaqtida u xalq qo‘shiqlaridan “Sapa kelipsiz”, “Dem bermes”, “Eshbay”, “Xoshades”, “Adınnan”, “Bes perde”, “Dağlar”, “Xoja bag‘man”, “Ellerim bardur”, N.Muxammeddinovning “Yar-yar aytaym”, A.Sultanovning “Nókis gúlleri”, O.Mameshovning “Aytqan qosıqlarımnan”, Q.Turdiqulovning “Súygenim súygen” kabi qo‘shiqlarini ijro etib kelgan [2; 27].

Qoraqalpoq va rus xalqlarining 100 yilligiga bag‘ishlangan Moskva shahrida o‘tkazilgan qoraqalpoq madaniyati kunlarida Sverdlov konsert zalida N.Muhammeddinovning simfonik orkestriga tushirilgan “Dem bermes” qo‘shig‘ini ijro etadi.

1972-yil Yugoslaviyaga qoraqalpoq madaniyatini tanitgan ansambl va havaskorlar bilan birgalikda borib o‘sha konsertda “Dem bermes” qo‘shig‘ini, o‘sha yilning o‘zida Olma-otada o‘tkazilgan, qoraqalpoq madaniyati kunlarida “Biybisánem” qo‘shig‘ini ijro etadi. Keyinchalik 40-50 kishidan iborat filarmoniya ansambli bilan ittifoq bo‘ylab Ukraina, Moldaviya, Pribaltika, Belorussiya bo‘ylab sayohat qildi. Kavkaz, umuman Sibirgacha borib konsertlarda qatnashib kelgan.

1977-yili Boshqirdiston, 1978-yili Tataristonda o‘tkazilgan qoraqalpoq madaniyati kunlarida “Yar-yar aytaym”, “Dem bermes” qo‘shiqlari bilan, 1979-yil Qirg‘izistonda, 1980-yil Ozarbayjonda o‘tkazilgan O‘zbekiston madaniyati kunlarida “Dem bermes” qo‘shig‘i bilan yuqori muvaffaqiyatlarga erishadi. 1984-yili Dog‘istonda qoraqalpoq madaniyati kunlarida “Ellerim bardı” qo‘shig‘i bilan, 1986-yili Koreyaga ansamblning konsert dasturida “Qız minayım” qo‘shig‘ini koreyalik qo‘shiqchi yigit bilan duet qilib aytgan, N.Muhammeddinovning “Yar-yar aytaym” qo‘shig‘ini ijro etib keladi. O‘sha yili “Ayqulash” ansambli bilan Qozog‘istonning Jambil, Olma-ota shaharlarida konsertlar berib, gastrollarda hattoki 2-3 oylab ham yuradigan bo‘lgan. Uning ana shunday tinimsiz mehnatlari hukumatimiz tomonidan yuksak baholanib, unga 1973-yili Qoraqalpog‘iston xalq artisti, 1974-yili O‘zbekiston xalq artisti, 1974-yili Hamza nomidagi davlat mukofoti laureati, 1977-yili Boshqirdiston xalq artisti faxriy unvonlari berilgan.

Tamara Doshumova. O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston va Tatariston xalq artisti, Berdaq nomidagi davlat mukofoti laureati o‘zining bulbuligo‘yo ovozi bilan xalqning qalbidan joy olgan xonandalardan biri, el suygan xushovoz sohiba T.Doshumova 1954-yil 10-mart kuni Nukus shahrida tug‘ildi. Uning bolaligidan musiqaga, qo‘shiq aytishga bo‘lgan ishtiyoqi baland bo‘lgan. Chunki u tug‘ma iste’dod egasi edi. U maktabda o‘qib yurganida madaniyat uyiga qatnagan va unga M.Qurbonov degan musiqachi “Kók qozım” qo‘shig‘ini o‘rgatadi. T.Doshumova 1968-yili davlat filarmoniyasiga ishga kiradi va u yerda T.Eshboyev va K.Asqarovalardan vokal bo‘yicha saboq oladi. U bu yerda rubobchi M.Raxmanovdan “Xon atlas” qo‘shig‘ini, X.Turdiqulovdan “Senin hár kúlgeniń báhár kelgendey”, “Bir gúlmen yarım”, “Qosıgıma óziń qanat bolarsañ”, “Qustay talpınıp tur kewlim kewlińe”, T.Eshbaevdan “Báhár kelseń”, A.Qayratdinovdan “Aq gúl”, “Yar etpes” va boshqa qo‘shiqlarni o‘rganadi.

1978-yili Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati institutiga drama va kino aktyori bo'limiga o'qishga qabul qilinadi.

T.Doshumova ko'plab shaharlarda gastrol safarlarida bo'ladi. U yerlarda o'zining xushovzligi bilan hammani lol qoldirdi. Ya'ni Dushanbe shahrida u "Muhabbat" qo'shig'ini mahorat bilan ijro eta oladi. Shuningdek, T.Doshumova deyarli barcha qoraqalpoq qo'shiqlarini ijro etib kelgan. Xalqimizning "Gulpaq", "Nalish", "Kelte nalish", "Teke nalish", "Dostima", "Senin bul dunyada barligin", "Yollarim", shu bilan birga "Suymegenge suykenbe" musiqali komediyasidagi Aysanem ariyasi bo'lgan. "Yara yandim" va boshqa milliy qo'shiqlarni ijro etib katta olqishlarga sazovor bo'ldi [2; 33].

El sevgan iste'dodli ustoz qo'shiqchi T.Do'shumova ana shunday fidoyi xizmatlari tufayli 1974-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, 1980-yilda O'zbekiston xalq artisti, 1977-yilda Qoraqalpog'iston xalq artisti, 1981-yilda Tatariston xalq artisti va 1984-yilda Berdaq nomidagi davlat mukofoti laureati bo'lishga muvassar bo'ldi.

Yuqorida nomlari ta'kidlab o'tilgan Qoraqalpog'istonda qo'shiqchilik san'atining asoschilari bo'lgan insonlarni ardoqlash, ulardan san'at sirlarini o'rganish va o'zlashtirish yosh avlodlarning muqaddas burchidir. Ularning qoraqalpoq madaniyatiga, qoraqalpoq qo'shiqchilik san'atiga qo'shgan hissalarini buyuk, xizmatlari va har bir mehnatining samarasi haqida eshitib qoyil qolmaslikning iloji yo'q nazarimda. Albatta qoraqalpoq xalqi mexribon insonlari va mana shunday buyuk iste'dodlari bilan har qancha faxrlansa arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nadirova A. Qaraqalpaq muzikasi tariyxı - Toshkent: 2018.
2. Matmuratov S.Ye, Kamalova D.E. Qaraqalpaq qosıqshılıq óneri – Toshkent: 2023.
3. Adambaeva T. "Qaraqalpaq muzikasınıń tariyxınan" - "Qaraqalpaqstan" nashri 1985-yil.
4. Шафранников В. Каракалпакские народные песни – Москва 1959.
5. Allanazarov D. Qaraqalpaq xalıq sazları - "Qaraqalpaqstan" nashri 2002-yil.